“OLIY TA’LIMDA PEDAGOGNING SHAXSIY VA KASBIY ETIKASI”

Maxmudova Oygul Elmurod qizi

Qo‘qon davlat unversiteti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-bosqich magistranti.

maxmudovaoygul9801@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida pedagogik etikaning nazariy va amaliy asoslari, o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy etikasi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va pedagogik muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy axloqiy fazilatlari tahlil qilingan. Shuningdek, talabalar bilan muloqotda “pedagogik takt”ning o‘rni, raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchi odobi va akademik halollik masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik etika, oliy ta’lim, kasbiy odob, pedagogik takt, akademik halollik, muloqot madaniyati, raqamli ta’lim.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические основы педагогической этики в системе высшего образования. В исследовании анализируются профессиональная компетентность преподавателя, его личные моральные качества и роль “педагогического такта” в общении со студентами. Также на основе монографических данных освещены вопросы этики преподавателя и академической честности выявлены проблемы.

Ключевые слова: Педагогическая этика, высшее образование, профессиональная этика, педагогический такт, академическая честность, культура общения, цифровая образование.

Abstract: This article explores the theoretical and practical foundations of pedagogical ethics in the higher education system. The study analyzes the professional competence of the teacher, personal moral qualities, and the role of “pedagogical tact” in communication with students. Additionally, issues of teacher

ethics and academic integrity in the digital learning environment are highlighted issues have been revealed.

Keywords: Pedagogical ethics, higher education, professional ethics, pedagogical tact, academic integrity, communication culture, digital ethics.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi yangilanish jarayonlari nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki ta’limning sub’ektlari bo‘lmish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi. Bugungi globallashuv va axborot xurujlari sharoitida pedagog nafaqat bilim manbai, balki ma’naviy yo‘naltiruvchi sifatida ham namoyon bo‘lishi lozim. Bu jarayonda o‘qituvchi shaxsida kasbiy va shaxsiy etika yaxshi shakllangan bo‘lishi, talaba yoshlar bilan ishlash ko‘nikmasining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi jarayonda pedagogik etika, shaxsiy etika tushunchalari haqida bildirilgan fikrlar izohiga alohida to‘xtalib o‘tsak. Pedagogik etika – axloqshunoslikning alohida tarmog‘i bo‘lib, u pedagogik faoliyatning axloqiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqotchi F.Sh. Ilmurodovaning ta’kidlashicha, pedagogik etika o‘qituvchining dars jarayonida, talabalar bilan muloqotda va hamkasblari o‘rtasidagi munosabatlarda namoyon bo‘ladigan axloqiy me’yorlar tizimidir1. Bu o‘qituvchining ichki ma’naviy dunyosi va tashqi xulq-atvori o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladi. Oliy ta’lim pedagogi uchun etika ,shunchaki, qoidalar majmuasi emas, balki uning kundalik ish faoliyatiga singib ketgan hayot tarzidir. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, sharq mutafakkirlaridan Forobiy, Ibn Sino, Navoiy ham muallimning axloqiy qiyofasini birinchi o‘ringa qo‘yishgan. Zamonaviy sharoitda esa bu me’yorlar xalqaro standartlar va milliy qadriyatlar bilan boyitildi.

Kasbiy etika – bu pedagogning o‘z xizmat vazifalarini bajarishda namoyon bo‘ladigan professional odobidir. Oliy ta’limda bu tushuncha akademik halollik tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Pedagog o‘z fanini mukammal bilishi bilan

1 Ilmurodova F.Sh., Sa'dullayeva M.H. Pedagogik etikaning dolzarb muammolari. Monografiya. Toshkent: "Dimal" nashriyoti, 2024. – 12-b.

birga, uni o‘qitishda adolat tamoyillariga qat’iy rioya qilishi shart. Kasbiy etika kasbiy kompetensiya bilan uzviy bog‘liqdir. Kasbiy kompetensiya — bu shaxsning o‘zining kasbiy faoliyatini samarali va sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va tajriba to‘plami. Kompetentlik kasbiy ishlarni bajarishda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan barcha xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu atama ko‘pincha ta'lim tizimlarida, ish bilan ta'minlash sohasida va psixologiyada qo‘llaniladi2. Kasbiy kompetentlik shaxsning ishinio‘rganish, malaka oshirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari:

1. **Akademik vijdonlilik:** plagiatga yo‘l qo‘ymaslik, baholashda xolislik;
2. **Intellektual saxiylik:** o‘z bilim va tajribasini talabalardan ayamaslik;
3. **Kasbiy sadoqat:** o‘z mutaxassisligi obro‘sini baland ko‘tarish;
4. **O‘qituvchining darsga tayyorgarligi, tashqi ko‘rinishi**;
5. **Nutq madaniyati** - bularning barchasi uning kasbiy etikasining bir qismidir.

Pedagogning shaxsiy etikasi uning ichki qadriyatlar tizimidir. Talabalar ko‘pincha o‘qituvchining bergan bilimiga emas, balki uning shaxsiy fazilatlariga qarab yo‘l tutishadi. “Ustoz – otangdek ulug‘” degan naql bejiz aytilmagan. Shaxsiy etikada halollik, vazminlik, bag‘rikenglik va kamtarlik asosiy o‘rin tutadi. Sh. Ilmurodova o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchining shaxsiy etikasi uning oiladagi va jamiyatdagi xulqi bilan ham belgilanishini uqtiradi. Jamiyatda pedagog shaxsi doimo diqqat markazida bo‘ladi, shuning uchun uning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ham axloqiy me’yorlarga mos kelishi zarur3.

Pedagogik muloqot – bu o‘zaro hamkorlik san’atidir. Bu jarayonda “pedagogik takt” tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Takt – bu pedagogik ta’sir choralarining

2 A.B.Yangibayev. “Kabiy kompetensiya va uning tarkibiy qismlari”. Maqola. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “MODERN APPROACHES IN TEACHING EXACT AND NATURAL SCIENCES: CHALLENGES AND SOLUTIONS”, MAY 30, 2025 y.
3 Ilmurodova F.Sh., Sa'dullayeva M.H. Pedagogik etikaning dolzarb muammolari. Monografiya. Toshkent: "Dimal" nashriyoti, 2024. – 36 b

me’yorini topa bilishdir. Bu talabaning shaxsiy g‘ururini kamsitmagan holda unga xatosini tushuntirish mahoratidir.

Oliy ta’limda talaba shakllangan shaxsdir. Shuning uchun muloqot “buyruqbozlik” emas, balki “dialog” asosida qurilishi kerak. Taktga ega pedagog talabaning fikrini tinglay oladi, uning savollariga sabr bilan javob beradi va darsda erkin ijodiy muhit yarata oladi. Bundan tashqari, bugungi kunda ta’lim jarayoni davomida pedagogik nizolar yuzaga kelishi tabiiy. Biroq bu nizolarni pedagog qanday hal qilishi uning etik saviyasini belgilaydi. Nizolarni bartaraf etishda “g‘olib-mag‘lub” emas, balki “hamkorlik” strategiyasini tanlash lozim. Hozirda uchraydigan pedagogic nizolarni bir necha turlarga bo‘lish mumkin. Bular:

Motivatsion nizolar: talabaning o‘qishga qiziqishi pastligi sababli.

Muloqot nizolari: o‘zaro tushunmovchilik oqibatida.

Baholash nizolari: adolatsiz qo‘yilgan deb hisoblangan baholar tufayli.

Pedagogik odob-axloq normalarga sodiq pedagog har doim vaziyatni obyektiv tahlil qiladi va o‘zining hissiy holatini jilovlaydi.

Bugungi kunda masofaviy ta’limning rivojlanishi "netiket" (tarmoq etikasi) tushunchasini keltirib chiqardi. Oliy ta’lim pedagogi onlayn platformalarda, Zoom yoki Telegram guruhlarida talabalar bilan muloqot qilganda ham etika qoidalariga rioya qilishi shart. Shaxsiy chegara va ish vaqti tushunchalari bu yerda yangicha ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, oliy ta’limda pedagogik etika – bu faqat dars berish tartibi emas, balki millat kelajagini shakllantirish mas’uliyatidir. Pedagog o‘zining shaxsiy va kasbiy etikasi bilan talabalarda ma’naviy immunitetni shakllantiradi. Oliy ta’limda pedagogik etika ta’lim sifatining kafolatidir. O‘qituvchi o‘z ustida tinimsiz ishlab, nafaqat soha bilimlarini, balki axloqiy madaniyatini ham yuksaltirib borishi zarur. Zero, talaba faqat kitobdan emas, balki jonli muloqotda o‘qituvchisidan o‘rnak oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyeva O., Yo‘ldoshev J. Pedagogik etika va mahorat asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

2. Karimov A. Pedagogik fazilatlar tizimi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

1. Zunnunov A. “Adabiyot o‘qitish metodikasi”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992.

2. Sodiqova N. Pedagogik madaniyat va axloqiy qadriyatlar.-Toshkent, 2020.

3. Xodjayev N. Pedagogik texnologiya va kommunikativ madaniyat. -- Toshkent: Fan, 2019.

4. V.A. Slastenin. Pedagogika. — Moskva, 2018.

5. Ilmurodova F.Sh., Sa'dullayeva M.H. Pedagogik etikaning dolzarb muammolari. - Monografiya. “Dimal” nashriyoti, 2024. - 102 b.

6. Mavlonova R., To‘raeva O., Xoliqberdieva K. “Pedagogika”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2001. – 312 b.

7. https://uz.m.wikipedia.org sayti.